

**VETERINARIYA YO‘NALISHIDAGI TALABALARNING KASBIY
KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINI
O‘QITISHNING O‘ZIGA HOS XUSUSIYATLARI**

Kenjaboev Shokir Abdulxalimovich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali*

“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasini mudiri dotsenti.

Email: shokir29111962@mail.ru

Tel: +998915865962

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilini o‘qitishda o‘ziga xos xususiyatlaridan foydalanish bo‘yicha strategiyalarni aniqlashda shuningdek, ingliz tili asosida veterinariya talabalarining kasbiy psixologik salohiyatini namoyon etish usullarini organishga bag‘ishlangan. Maqolada hozirgi kunda ta‘lim jarayonida veterinariya mutaxassisligi talabalariga ingliz tili o‘qitishda pedtexnologiyalardan foydalanish va darslarning samarali natija berishi o‘qituvchining talabalarni qay darajada qiziqitira olishiga va ularni bilim olishga bo‘g‘liq masalalar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Farmasevtika tarmog‘ini rivojlantirish, integratsiyalashuv, sotsiolingvistik kompetensiya, investetsiya, farmasevtika, linguvodidaktika, autokompetensiya, aksiologik, ob‘ektiv fikirlash, kommunikativligi va ijtimoiy lingvistik, hamkorlik, nostandart, takomillashtirish, tayyorgarligini oshirish, anjomlardan foydalanish, ensiklopediyalar, dasturlar.

Axborot va integratsiyalashuv jarayoni nihoyatda kuchaygan bugungi kunda mamlakatlararo ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy aloqalarning yanada kengayishi chet tillarni o‘rganishni hayotiy zaruratga aylantirdi.

Dunyoda yoshlarning til o‘rganish qobiliyatini rivojlantirish, ularning ijtimoiy kommunikativligi va ijtimoiy lingvistik tayyorgarligini oshirish, ulardagi sotsiolingvistik kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasini aniqlash, xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion ta‘lim texnologiyalaridan samarali foydalanish yo‘nalishidagi tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, zamon talabiga mos keladigan ta‘lim texnologiyalarini ishlab chiqish, har bir shaxsning intellektual va psixologik salohiyatini namoyon etish, talabalarning sotsiolingvistik kommunikativligini oshirish, ulardagi ijtimoiy lingvistik tayyorgarligini faollashtirishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Biz raqobatdosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida ikkita chet tilini

mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim”¹.

Shu bois, respublikamizda chet tillari, xususan, ingliz tili uzluksiz ta’lim tizimining maktabgacha ta’limdan to oliy ta’limdan keyingi malaka oshirish tizimlarigacha bo’lgan barcha bosqichlarda, barcha yo’nalishlar shu jumladan veterinariya meditsinasi va chorvachilik ixtisosliklari bo’yicha taxsil olayotgan talabalarga ham o’qitilmoqda. Bunda oliy ta’limgacha talabalarga ingliz tili bitta tayanch dastur asosida o’qitilsa, oliy ta’lim bosqichida esa, ikkita yo’nalish chet tilni filologik maqsadlarda o’qitish, ya’ni bo’lg’usi chet tili o’qituvchilarini tayyorlash va nofilologik yo’nalishda tilni muayyan maqsadlarga va kasblarga yo’naltirib (Language for Spesifis Purposes, LSP) o’qitish farqlanadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Farmasevtika tarmog’ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5229-sonli Farmoni asosida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-dekabrda O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi huzuridagi “Farmasevtika tarmog’ini rivojlantirish agentligi to’g’risida” gi VMQ №993-sonli Qarori bilan mamlakatimizda farmasevtika sanoatini rivojlantirish yuzasidan qabul qilingan Nizomda:

– dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiyot texnikasini mahalliy ishlab chiqaruvchilarga yetakchi chet el farmasevtika kompaniyalari bilan hamkorlikni tashkil etishda ko’maklashish;

– mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan yetakchi xorijiy kompaniyalar o’rtasida hamkorlikni tashkil etish;

– mahalliy tashkilotlar vakillarining xalqaro farmasevtika ko’rgazmalarida, forumlar, konferensiyalar, seminarlarda hamda xorijiy mamlakatlarda o’tkaziladigan milliy ko’rgazmalarda ishtirok etishini ta’minlash;

– xalqaro tashkilotlar, hukumatlararo komissiyalar (guruhlar) va biznes-forumlar ishida qatnashish agentlikning asosiy vazifalari sifatida belgilangan². Mazkur vazifalar aholini sifatli dori vositalari bilan ta’minlashda farmasevtlarning chet tilida kasbiy-sohaviy kompetentlikka ega bo’lishlari nechog’lik muhimligini yaqqol ko’rsatadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-aprelda “2019-2021 yillarda respublikaning farmasevtika tarmog’ini yanada jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5707-sonli Farmonida ham farmasevtika tarmog’ini jadal rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni hamda yetakchi xorijiy kompaniyalarni investitsiya loyihalarini amalga oshirishga jalb qilish, innovatsion farmasevtika

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 6 майда чет тилларини ўқитиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари юзасидан видеоселектор йиғилишида сўзлаган нутқидан.

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги ҳузуридаги фармацевтика тармоғини ривожлантириш агентлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги Қарори / – ЎЗАҚҲТ, 2017. ВМҚ – 993-сон

mahsulotlarini yaratishni rag‘batlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish hajmlari va eksport salohiyatini kengaytirish ta’kidlangan³ va:

- mahalliy farmasevtika sanoatini rivojlantirish, uning jahon bozoriga kirib borishidagi ulushini ko‘paytirish;
- farmasevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish;
- xorijiy investorlar bilan aloqalarni kuchaytirish va investitsiyalarni olib kirishni kengaytirish;
- yangi dori-darmonlari yo‘riqnomalarini xalqaro to‘g‘ri tuzish;
- laboratoriya jixozlari va anjomlaridan foydalanish yo‘riqnoma ko‘rsatmalaridan foydalana olish kabi vazifalar qo‘yilgan.

Mazkur qaror va farmonlar ijrosini ta’minlashda veterinariya meditsinasi va farmasevtikasi yo‘nalishi talabalarining chet tili, ayniqsa ingliz tilini o‘rganishlari ularning tashqi aloqalaridagi va mamlakatimizdagi ichki faoliyatlarida katta amaliy ahamiyatga ega. Xususan, farmasevtika sohasiga oid atamalarning asosiy qismi lotin tilidan o‘zlashtirilganligi, respublikamizga turli mamlakatlardan dori-darmonlar keltirilishi, shuningdek, veterinar vrachlar, vrach-provizorlar va soha farmasevtlarining shu sohaga oid yangiliklardan muntazam xabardor bo‘lib turishlari zarurati bo‘lajak dorishunoslarning ingliz tilini yaxshi bilishlarini taqozo etadi. Mamlakatimizda hozirgi kunda 100 dan ortiq farmasevtika korxonasi faoliyat yuritmoqda. Sohaga yo‘naltirilayotgan chet el investitsiyalari yildan-yilga ortib, xalqimizni sifatli dori bilan ta’minlash, farmasevtika sanoatini yanada rivojlantirish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda xorijiy mamlakatlar bilan bevosita aloqaning mavjudligi, veterinariya va farmatsiya sohasida ta’lim va fanning jadal rivojlanayotgani bo‘lajak farmasevtlarga sohaga oid axborotlarni to‘plash, kerakli ma’lumotlarni asliyatda o‘qish, dorishunoslikka oid atamalarni o‘rganish va ulardan kasbiy sohada foydalanish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu esa, veterinar-farmasevt talabalarining ingliz tilidagi bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Bundan ko‘rinadiki, farmasevtika yo‘nalishida talabalarni ingliz tilida erkin muloqot yuritishga o‘rgatish ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, bo‘lg‘usi veterinar-farmasevtlar va veterinariya meditsinasi yo‘nalishidagi talabalarining ilmiy, kasbiy-sohaviy bilimlarini va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirishga yordam beradi. Ta’kidlash kerakki, bugungi kunga kelib, farmasevtika sanoati nihoyatda rivojlanib bormoqda. Biroq dori vositalarini ishlab chiqarishda foydalanilayotgan laboratoriya anjomlari haqidagi adabiyotlarning aksariyati esa, ingliz tilida shop etiladi.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 апрелдаги “2019-2021 йилларда Республиканинг фармацевтика тармоғини яна жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5707-сонли Фармони <https://lex.uz/ru/docs/4280358> [Мурожаат санаси: 14.12.2019.].

Oliy ta’lim tizimining rivojlanishi, raqobatbardosh bo’lishi va eng asosiysi, tayyorlangan kadrlarning yuksak bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lishi bilan bog’liq yangi texnologiyalar soni va sifatining ortishi, dunyo miqyosida aholi sonining muttasil o’sib borishi bilan mustaqil ta’limning ham ahamiyati tobora ortib bormoqda. “Bugungi kunda ta’lim tizimining rivojlanganligi, uning torgina sinflar yoki auditoriyadagi amaliy jarayonlar bilan cheklanmasdan, talaba intellektini rivojlantirishning turli muassasalar va uslublar bilan boyitish zarurligini taqozo etmoqda. Insonning professional jihatdan layoqatliligi, kompetentligining muhim ko’rsatkichlaridan biri uning o’sish, o’z-o’zini takomillashtirish sari intilishida namoyon bo’ladigan mustaqil ta’lim olish qobiliyatidir⁴” deya ta’kidlaydi rus olimi Ye. Bryazgunova. Bundan ko’rinadiki, mustaqil ta’limga katta e’tibor qaratish til o’rganishdagi o’ta muhim xususiyatdir.

Veterinariya meditsinasi yo’nalishi hamda veterinariya farmasevtika sohasida ham ingliz tilini o’qitishda lotin tili bilan bevosita bog’liqlik mavjud bo’lib, o’zbek olimasi M.N Isroilovanning tibbiyot yo’nalishida lotin tili atamalarni o’qitishga bag’ishlangan ilmiy tadqiqot ishida, “Latin in English”, “English grammar for students of Latin” darsliklarida ingliz tilini lotin tili bilan qiyoslab o’qitishda ot, fe’l, sifat va predloglardagi o’xshashliklardan kelib chiqish, ega, to’ldiruvchilar, egalik va kichilik olmoshlarini qiyoslab o’rganish zarurligi ta’kidlanadi⁵.

Hozirgi kunda xorijiy tillarni o’rganish sohasida tilni mustaqil o’rganish yoki o’qitish (til o’rgatish faoliyati bilan shug’ullanish)ning imkoniyatlari MOOSs (massive open online sources), turli internet ensiklopediyalar, dasturlar, universitetlar, institutlar, maxsus markazlartomonidan tashkil qilingan onlayn kurslar tufayli tobora yengillashib bormoqda. Bundan tashqari, televideniya va radio, internet orqali tashkil etilgan onlayn kurslar shunchalik ko’payib bormoqdaki, ular tomonidan til o’rganish yoki o’rgatish bo’yicha maxsus metodikalar ishlab chiqilib, o’rganish uchun taklif qilinmoqda.

Talaba yoki til o’rganuvchi tomonidan biror bir tilni o’zlashtirish, uni puxta egallash, buni amalda isbotlaydigan yoki darajasini aniqlab beradigan tegishli sertifikatni qo’lga kiritish uchun bugungi kunda uydan chiqish ham shart emas. Har qanday til o’rganishni maqsad qilgan kishi o’zining bo’sh vaqtida va o’rganish imkoniyati va ehtiyoji asosida onlayn kurslardan foydalangan holda amalga oshirishi mumkin. Buning yana bir qulay tomoni shundaki, bir necha yillar muqaddam til o’rganishni o’z oldiga maqsad qilib qo’yganlar anchagina mablag’ sarflashi lozim bo’lgan bo’lsa, bugungi kunda bunday katta mablag’ sarflashga shart bo’lmay qoldi. Bunday imkoniyat va raqobat esa, o’z navbatida an’anaviy ta’limga va uning

⁴ Брызгунова, Е. Н. Самообразование как основа успешности человека [Электронный ресурс] / Е. Н. Брызгунова. – Режим доступа : <http://moluch.ru/conf/ped/archive/22/2175/>. – Загл. с экрана (дата обращения: 02.09.2016)

⁵ Исроилова М.Н. Латин тилини ўқитиш жараёнида тиббиёт олий таълим муассасаси талабаларининг интеллектуал маданий ривожлантиришнинг дидактик асосларини такомиллаштириш: Пед. фан... фалсафа док. дисс. (PhD) – Т., 2018. – 121 б.

muassasalariga sezilarli darajada “tajovuz” qilmoqda. Zero, “mustaqil ta’limning mazmun-mohiyati xodimning uzluksiz ta’lim yo’li bilan o’z-o’zini namoyon qilishdagi anglash faolligini, ehtiyojini qondirish uchun ta’lim olishini anglatadi⁶”

Respublikamiz shart-sharoitida bular qatoriga bo’lg’usi veterinariya meditsinasi, farmasevtikasi yo’nalishlaridagi talabalarga zamonaviy axborot texnologiyalarini yaxshi bilish va uni sohada chet tillarni qo’llay olish kompetensiyasi ham zarurligini e’tirof etish kerak. Mavjud nuqtai nazarlardan kelib chiqib, biz veterinariya meditsinasi, farmasevtikasi yo’nalishi talabalarining kasbiy layoqati veterinariya farmasevtikasi va veterinariya meditsinasi mutaxassisligiga oid bilim, malaka va ko’nikmalar hamda shu soha dorishunoslari uchun zarur shaxsiy fazilatlarga egalik, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana olishlik va chet tillarida kasbiy kommunikativ kompetentlikka ega bo’lishlik, deb hisoblaymiz.

Shuningdek, bo’lajak veterinariya meditsinasi, farmasevtikasi, dorishunosligi yo’nalishi talabalarining kasbiy kompetentlik xususiyatlarini rivojlantiruvchi amaliy (bilim, malaka, ko’nikma), aksiologik (kasbga shaxsiy yo’налganlik), xissiy (o’z-o’zini boshqarish), autokompetensiya (texnologiyalardan foydalana olish), maxsus kompetensiya (kasbiy vazifalarni yesha olish) komponentlari ularning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda birlamshi omillardir. Lingvodidaktikaning bir tarmog’i sifatida chet tillarni kasb va sohaga bog’liq holda o’qitishning nazariy va metodik ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan kasbiy lingvodidaktikaning asosiy tamoyillaridan biri ingliz tilini mutaxassislik fanlari bilan bog’liqlikda o’qitish bo’lib, xususan, veterinariya meditsinasi, farmasevtikasi va boshqa shu soha yo’nalishlarida ingliz tilini o’qitishda fanlararo aloqa mutaxassislikka oid bilimlarning boyib borishiga, sohaga oid eng so’nggi yangiliklardan xabardor bo’lib borishga olib keladi va talabalar motivatsiyasining oshishiga, ularda amaliy, aksiologik va maxsus kompetensiyalarini shakllanishiga yordam beradi.

Bu jarayonda mustaqil ta’limning ham o’rni juda muhimdir. Bugungi kunda mustaqil ta’limning asosiy vazifasi maksimal darajada shaxsni hayotga tayyorlash, o’zini o’zi rivojlantirish va takomillashtirish ko’nikmalarini hosil qilish, nostandart vaziyatlarda ob’ektiv fikrlash va uni to’g’ri baholashga undashdir. “O’z-o’zini takomillashtirish – bu “shaxsning o’z sifatleri va qobiliyatlarini rivojlantirishini ongli boshqarish jarayoni”, “intilishlarini uyg’otish bilan bugungi kuni ortda qoldirish, katta natijalarga erishish, o’z mahoratini oshirish, o’zi uchun zaruriy shaxsiy sifatlarni qo’lga kiritish⁷”. Ko’rinib turibdiki, uzluksiz mustaqil ta’limning natijasi – bu bo’lajak mutaxassisning, professional va umuman insonning kasbiy o’z ustida ishlash va doimiy takomillashuvidir.

⁶ Алдакаева, Н. Г. Тетрадь по самообразованию с заметками на полях / Н. Г. Алдакаева, Л. Ю. Яковлева. – Салехард : ИМЦ, 2009. – 32 с

⁷ Маралов, В.Г. Основы самопознания и саморазвития / В.Г. Маралов. - М.: Академия, 2002. С. 83. - 256 с

Mustaqil ta’limning maqsadni aniq shakllantira olish, muammoni to’liq ko’ra bilish va eng muhim detallarga e’tiborni jamlash, ta’lim va bilim olish jarayonini ijodiy qayta tahlil qilish ko’nikmalarisizimkoniyati yo’q ekanligini anglashdir. Shaxsning mustaqil ta’limi maqsadli, anglangan harakter kasb etish bilan bir qatorda, inson faoliyatining puxta rejalashtirilishiga, uning xayotiy ustuvor maqsadlariga, o’z oldiga qo’ygan vazifalariga asoslanadi. Bir nasha bor ta’kidlab o’tilgan bo’lsada, aytish mumkinki, mustaqil ta’limning yana bir asosiy maqsadi zamonaviy professional talablar asosida nazariy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, mavjud bilim va ko’nikmalarni takomillashtirish, yangi bilim va malakalarni egallashdir. Mohiyatan mustaqil ta’lim aqliy mehnat, muammolarni bartaraf qilishko’nikmasi, nafaqat shaxsiy takomillashuvi ustida, balki professional o’sishi ustida ham ishlash texnikasi va madaniyatini qo’lga kiritish demakdir.

Mustaqil ishlash va ta’lim olish qobiliyatiga ega bo’lgan inson maqsadli ilmiy-amaliy, tadqiqot faoliyatini olib bora oladi va bu uning yuqori professional darajaga ega bo’lganligini, professional faoliyatni olib bora olish salohiyatiga ega bo’lganligidan darak beradi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 6 майда чет тилларини ўқитиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари юзасидан видеоселектор йиғилишида сўзлаган нутқидан.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги хузуридаги фармацевтика тармоғини ривожлантириш агентлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги Қарори / – ЎзАҚХТ, 2017. ВМҚ – 993-сон
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 апрелдаги “2019-2021 йилларда Республиканинг фармацевтика тармоғини яна жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5707-сонли Фармони <https://lex.uz/ru/docs/4280358> [Мурожаат санаси: 14.12.2019.].
4. Брызгунова, Е. Н. Самообразование как основа успешности человека [Электронный ресурс] / Е. Н. Брызгунова. – Режим доступа : <http://moluch.ru/conf/ped/archive/22/2175/>. – Загл. с экрана (дата обращения: 02.09.2016)
5. Исроилова М.Н. Лотин тилини ўқитиш жараёнида тиббиёт олий таълим муассасаси талабаларининг интеллектуал маданий ривожлантиришнинг дидактик асосларини такомиллаштириш: Пед. фан... фалсафа док. дисс. (PhD) – Т., 2018. – 121 б.
6. Алдакаева, Н. Г. Тетрадь по самообразованию с заметками на полях / Н. Г. Алдакаева, Л. Ю. Яковлева. –Салехард : ИМЦ, 2009 . – 32 с
7. Маралов, В.Г. Основы самопознания и саморазвития / В.Г. Маралов.- М.: Академия, 2002. С. 83. - 256 с